

**„SAB'AI SAYYOR“ DOSTONINING QORAQALPOQCHA TARJIMASI
(XII-XIX boblar misolida)**

Z.G.Azilova – *assistent o'qituvchi*

Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: tarjima, so'zboshi, asosiy qism, badiiy tarjima, tarjima san'ati, bayt.

Ключевые слова: перевод, предисловие, основная часть, художественный перевод, искусство перевода, строфа.

Key words: translation, foreword, the main part, artistic translation, art of translation, stanza.

Alisher Navoiy asarlari XVI asrdan xorijiy tillarga tarjima qilina boshlandi. Sharqshunos olimlarning ma'lumot berishicha, „Sab'ai sayyor“ dostoni XVI asr boshidayoq Xristafor Tabriziy tomonidan italyan tiliga o'g'irilgan. XVI asr oxiridan XVII asrning boshlarigacha Navoiy asarlari italyan tilida 4 marta, nemis tilida 5 marta chop etilgan bo'lsa, 1719-yili fransuz, 1766-yili esa golland tilida nashr etilgan.

„Sab'ai sayyor“ dostoni S.Lipkin tomonidan rus tiliga tarjima qilinib, 1948-yilda „Семь планет“ nomi bilan nashr qilingan. Ana shu ruscha tarjima asosida mazkur dostonni Maden Matnazarov qoraqalpoq tiliga tarjima qildi. Doston tarjimasi 1968-yili „Qoraqalpoqstan“ nashriyotida „Jeti iqlim“ nomi bilan kitob holida bosilib chiqqan.

„Sab'ai sayyor“ dostoni tarjimasi qoraqalpoq adabiy tarjimachiligi tarixida muhim yangilik bo'ldi. „Jeti iqlim“ kitobiga 1940-yili Olim Sharafiddinov so'zboshi yozgan. Kitob mana shu so'zboshi bilan boshlanadi. Unda dostonga shunday ta'rif beriladi: „Jeti iqlim“ – ulli shayir Alisher Nawayi doretken ajayip „Xamsa“ning to'rtinchi kitabi. Ulli k'orkem oner iyesi onini b'ul d'astanina Shig'is xaliqlari arasina ke'n taralg'an Bahramg'or legendsin tiykar etip alg'an. ...Alisher Nawayi olmes d'astanlar ulli Ferdawsiy Nizamiy h'am Amir Xisrawlardin shig'armalari siyaqli h'urmetli oring'a iye h'am jahan adabiyati g'aziyinesine bahasi joq tartiw. Jeti iqlim mine usi tartiwdin k'ornekli marjanlarinin biri“ [2:10].

„Sab'ai sayyor“ dostoni asliyatdagi XII bobdan boshlab tarjima qilingan. Mazkur tarjima „Bahram ham Dilarom haqqida d'astan“ sarlavhasi bilan boshlanadi. Biz tahlilni aniq bo'lishi, baytlar sonini aniqlash uchun dostonni boblarga bo'lib tahlil qildik. Asliyatda XII–XIX boblar jami 758 baytni tashkil etadi. Tarjimada esa bu boblardagi voqealar bir bobda bayon etilgan va 343 baytdan iborat. Tarjima asliyatdagidek boblarga ajratilmagan bo'lib, jami 11 bobni o'z ichiga oladi. Asliyatda XII bob Bahromning yetti iqlim hukmdori ekanligi ta'rifi bilan boshlanib, Diloromni saroyga olib kelish uchun elchi yuborishi bilan tugaydi. Bahrom shunday ta'riflanadi: „Baland osmon Bahromning johi saltanatini falakka payvand qildi. Uning saltanatini yildan-yilga oydan-oyga kengaytirib, to Rum va Chin Xitoy o'lkalari ham, Chinning hoqoni-yu, Rum Qaysarigacha uning hukmi ostiga o'tdi. Bugina emas, uning davlat sham'ini falak shunday yoritdiki, butun rub'i maskun (yer yuzi) uning qo'l ostiga kirdi. Eng qaysar ellar ham unga itoat qiladigan bo'ldi“ [3:382]. Shu ta'riflar keltirilgan baytlar tarjimada aks etmagan.

Asliyatda XII bob 158 baytni tashkil qiladi. Tarjimada esa 112 bayt. 52 bayt tushib qolgan. Ya'ni quyidagi baytlar tarjimada yo'q: 3, 4, 5, 6, 12, 13, 18, 19, 20, 22, 23, 24, 26, 32, 33, 38, 55, 62, 63, 64, 65, 67, 73, 75, 76, 77, 78, 79, 80, 81, 82, 83, 84, 86, 88, 92, 114, 115, 116, 117, 118, 119, 120, 121, 137, 118, 140, 144, 146, 147, 149, 152. „Biroq – N.G.Chernishevskiy aytganidek, – tilning aniq va to'g'ri bo'lishiga xilof yetkazgan holda hijjalab ag'darishga intilish aniqlik tushunchasining o'ziga xilofdir, chunki asl nusxada ravshan bo'lgan narsa tarjimada ham ravshan bo'lishi kerak. Aks holda tarjima qilib o'tirishning nima hojati bor“ [5:27]. Tarjimada ham voqealar ketma-ketligi to'g'ri, biror voqea tushib qolmagan. Faqat ta'rif-tavsiflar, Bahromning ta'rifi, Diloromga oshiq bo'lib qolgandan keyingi holati, ruhiyati, kechinmalari, Diloromning ta'rifi

asliyatdagi kabi to'liq berilmagan, qisqartirilib tarjima qilingan. Shuning hisobiga baytlar soni kamayib qolgan.

Asliyatdagi yettinchi bayt boshqacha tarjima qilingan:

Sarkash el qildi sarfigandalig'in

Yetti iqlim shohi bandalig'in

Mazmuni: „Eng qaysar ellar ham unga itoat qiladigan bo'ldi. Yetti iqlim shohi bandasiga aylandi“. Tarjimada „eng qaysar ellar ham unga itoat qiladigan bo'ldi“ degan misra yo'q:

Shahı boldı Bahram gullán shahlardıń,

Jeti jurttıń hám ondağı xalıqlardıń [2:11].

XIII bob asliyatda 100 bayt. Tarjimada esa 28 baytni tashkil etadi. 11, 12-34, 36-43, 47-50, 52, 53, 55-88, 98-100 baytlar tarjimada keltirilmagan. Bu baytlarda Bahromning Diloromni kutishdagi hijron g'amiga botishi, ruhiy holati, ahvoli, qanday ko'yg'a tushganligi tasviri berilgan (asliyatda bu 11-41 baytlarni o'z ichiga oladi). Diloromning husni jamoli ta'rifi (54-88-baytlar) keltiriladi. Shu ta'riflar tarjimada aks etmagan. Bahromning Diloromni birinchi ko'rgandagi holati ta'sirli ifodalangan:

Burın k'orgen jansız boyaw tilekte,

Suwret edi arman, ertek, tus tek te.

Sol suwretke tosinnan jan ener de:

Sira patsha aqlına keler me?

Asliyatda XIV bobdagi Bahromning oshiqlik holati aks ettirilgan 5-baytdan boshlab 38-baytgacha tarjimada yo'q. Bu baytlarda Dilorom bilan Bahromning sahro kezib, ov qilib, xursandchilik qilib, may ichganliklari tasvirlangan. Ta'rif-tavsiflar kamaytirilib, asliyatdagi 1, 3-4, 39-41, 43-44, 62-65, 74-76-baytlargina tarjimalangan. Qolgan baytlar tarjimada berilmagan. Asliyatda bu 77 bayt, tarjimada 15 bayt bo'lib qolgan. XV bob asliyatda 97 bayt. Tarjimada esa 72 bayt bo'lib, asliyatdagi 14-15, 18, 20-25, 28-31, 35, 51, 53-54, 68, 75, 79, 88-97-baytlar tarjimada yo'q. 21-31-baytlarda Bahromning ko'ngli behuzur, xayoli parishon bo'lib har laha yuragini xavf-xatar bosganligi tasvirlanadi. Nihoyat u: „Shohlik martabasi qo'limda bo'lsa, bunday mahvash kosagulni har qachon topishim mumkin. Men qanchadan beri bu go'zal bilan maishat qilmoqdaman, agar shoh bo'lmasam buning visoliga muyassar bo'la olarmidim? Yo'q mamlakatim-shohligim bo'lmasa, u ofat men bilan birga bo'lmasdi va tirikchilik qilmasdi. Yor va uning ishqı mavjud ekan o'zga hamma narsa nobud bo'lishi muqarrardir. Kimki ishq bilan shohlikni birga olib boraman desa, muz sumalagidan sham yasayman deganga o'xshash gap bo'ladi, degan fikrga keldi. Uning ko'ngli mamlakat va boyliklarni qo'ldan bermaslikni ma'qulladi. Bu ishqni tark etish uchun bir bahona edi“ [3:397]. Shu mazmundagi baytlar tarjimada berilmagan. Asliyatda muallif tomonidan ishq va shohlik bir tanga sig'masligini, oshiq qanday bo'lishini (21–31) o'xshatishlar bilan dalillab beradi. Ishaq uchun hamma narsadan voz kechgan, muhabbat shu'lasida o'rtangan odam kerak. Borliqda nimaiki bo'lsa, hammasidan yuz o'girib, fano yo'lini tutgan ikki jahondan qo'l yuvib qo'ltig'iga urgan odam kerak. Yori istasa, jonini berishga tayyor turgan, balki uning roziligi uchun yuzta joni bo'lsa ayamaydigan odam kerak. Chin oshiq o'z jon mulkini dilbari ixtiyoriga vaqf qilib berishi, bir jon emas ikki jahon mulkini unga sadqa qilishi lozim. Ana shu mazmundagi baytlar ham tushib qolib, faqat asliyatdagi asosiy mazmunni ifodalagan 27-bayt tarjima qilingan:

Hámel menen jayǵaspaydı muhabbat,
Ishqı menen biydáwletlik shahqa jat!
Asliyatda:
Ishq ıla shohlig' muvofiq emas,
Ishq lofida shoh sodiq emas.
XV bobdagi 56-bayt asliyatda:
Anga chun husnidin bor edi g'ino,
Keldi husn iqtizosi istig'no.

Ya'ni Diloromning o'zining husnidan mag'rurlanib,
istig'no qilib qaraydi. U husnga boy bo'lgani uchun
husnning taqozosi tannozlik bo'ladi. Tarjimada boshqacha
„jirkanib qaradi“ deyilgan:

Al Dilaram, ayday juzli qaraǵı,
Bul nársege jiyirkenip qaradı.
Asliyatda 59-baytda Dilorom kuldi deyilmagan:
Demadi shohniki. „Etting xub“,
Ishni idmong'a ayladi mansub.

Tarjimada:
Sıńq-sıńq kuldi iqtıyarsız, eriksız,
Shah martlıǵı kóringendey kórsız.

XVI bob asliyatda 76 baytdan iborat, tarjimada esa 8
bayt. XVII bob asliyatda 102 bayt tarjimada 11 bayt.
Bahromning Dilorom hajrida qiynalgani, oh-u nola
chekkani va kechasi xudoga, xalqiga va qo'shiniga nola
qilgani, qonga belangan badani tuproqqa yiqilib turishidan
iborat bo'lgani tongda hushidan ketganligi tasvirlanadi.
Tarjimada bu holatlar qisqartirilgan. XVIII bobda Shoh
Bahrom taxti taxtadek – sartaxtadek tuyular edi deyiladi.
Tarjimada esa bu bayt „tabitınday“ deb tarjimalangan.
Tarjimada 3-13, 16, 18-23, 25, 29-31, 34-38, 41-46, 49-50,
89-90-baytlar yo'q. Asliyatda 91 bayt, tarjimada 56 bayt.
Bahromning devona bo'lganligi holati, davlat boshliqlari
aytgan gaplar ham qisqartirilgan. 84-bayt asliyatdagidan
boshqacha tarjimalangan:

Tarjimada:
Bahram jıllı koplár shahlar sózlerin,
Sol sát, páрман kereǵı joq ózgenin...

„Jilli“ so'zining ma'nosi quyidagicha izohlanadi: „Jinlı
kel. 1. Aql esin joyıtqan, aqıldan ayrılǵan“ [4:206]. „Jilli“
so'zi noto'g'ri qo'llangan. To'g'ri Bahrom oldin ishqni deb
es-hushidan ayriladi, lekin keyin o'ziga keladi.

XIX bob asliyatda 56 bayt tarjimada 40 bayt. XIX
bobda qaslarni bezatish ishlari tugagandan keyin, hakimlar
dedilarki: „Emdi quvvat batamom tiklanishi uchun,
qaslarning hamma kam-ko'stlari bitkazilgach, yettita hur
kabi go'zal qizni keltirish kerak. Shohlardan kimning
hurvash farzandlari bo'lsa, kimda Bahromga munosib va
loyiq qiz bo'lsa, shulardan yettitasini tanlab olib, shohga
nikohlamoq va qaslarda shoh bilan bu go'zallar orasida
cholg'u va may bazmi bo'lib turmog'i lozim“. Kimda
shunday qiz borligi surishtirilib, yetti shohning yetti pari-
paykar qizi borligi aniqlandi. Parda ichida o'tirishlariga
qaramay, parda orqasidagi sirni biladigan darajada aqlli va
dona qizlar bo'lishadi. Ularning har biri aqlni ham, jonni
ham shoshiradigan aql-u jongina emas, butun jahon
kishilarini talvasaga soladigan go'zal edilar. Yetti iqlim
shohiga xabar yuborishadi, ular buni mamnuniyat bilan
qabul qiladilar. Shu tariqa Bahrom to'y-tomosha avjiga
chiqqan paytda yetti go'zal bilan nikohlaniib, er-xotin
bo'lishadi. Ularning har biri otalari tomonidan qurilgan
saroyga joylanadilar. Vaqtshunos olimlar yulduzlariga qarab
shanba kuni sharofatli kun ekanligini aniqlaydilar. Shu kuni
shoh qora qasrga kirib, mushkdek muattar may ichsa,
qutlug' bo'lur ekan. Tarjimada esa bu voqealar ya'ni
asliyatdagi 31-baytdan boshlab, 51-baytgacha yo'q.
Tog'ridan-to'g'ri tabiblar qaysi kun qay soatda qaysi
saroyda bo'lishini aytdi deyilgan, biroq shanba qutlug' kun
ekanligini tabiblar emas, vaqtshunos olimlar aniqlaydilar.

Qayta tapti Bahram sayri-tahatin...

Al táwıplér ayttı kunin saatın:

Badiiy tarjima – chinakkam ijodiy jarayon. Tarjimon
esa „Qutb Xorazmiy aytganidek, tarjima qilinayotgan
asarning oshig'i, u o'z muhabbatini o'zga borliqda
ko'radigan, uning sog'inchini oldida boshqa barcha
sog'inchlarni unutib yuboradigan ijodkor inson“ [1:129].
Tarjimada baytlar soni qisqarib qolganligi bilan asosiy
mazmun saqlangan. Tarjimon rus tilidan ya'ni vositachi til
orqali tarjima qilganligi sababli baytlar soni qisqarib
qolgandir. Xulosa qilib aytgach, tarjimon Navoiy aytmoqchi
bo'lgan fikrni tarjimada bera olgan. Qofiyadosh so'zlarni
topib qo'llab, sodda ravon tilda tarjima qilingan.
Qoraqalpoq kitobxonlari „Sab'ai sayyor“ dostonini o'z ona
tillarida o'qishga muyassar bo'ldilar.

Adabiyotlar

1. Abdulla Sher. // «Sharq yulduzi». №3. 2014. 129-b.
2. Nawayı A. Jeti iqlim. –Nókis: «Qaraqalpaqstan». 1968.
3. Navoiy A. Sab'ai sayyor. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi. 1991.
4. Qaraqalpaq tiliniń tusindirme sózligi. –Nókis: «Qaraqalpaqstan». 1984. T.II.
5. Salomov G'. Til va tarjima. –T.: «Fan». 1966.

РЕЗЮМЕ. Mazkur maqolada A.Navoiy „Sab'ai sayyor“ dostonining qoraqalpoq tiliga tarjimasi o'rganilgan holda asliyat bilan
qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, asl matn va tarjimadagi baytlar soni va ularning mazmuniy muvofiqligi yoritilgan.

РЕЗЮМЕ. В этой статье проведен сравнительный анализ эпоса Навои „Сабаи Сайёр“ на каракалпакском языке с изучен-
ным асломом. Также освещается количество байтов в исходном тексте и переводе и их содержательная совместимость.

SUMMARY. This article provides a comparative analysis of the Navoi epic „Sabai Sayyor“ in the Karakalpak language with the
studied aslat. It also highlights the number of bytes in the source text and translation and their content compatibility.

ҚАРАҚАЛПАҚ ӘДЕБИЯТТАНЫҢ ИЛИМИНДЕ ЛИРИКАЛЫҚ СУБЪЕКТТИҢ ИЗЕРТЛЕНИҢ МӘСЕЛҒЕЛЕРИ

П.Дабылов – филология илимлери бойынша философия докторы
Бердақ атындағы Қарақалпақ мәмлекетлик университети

Таянч сўзлар: лирика, лирик субъект, лирик қахрамон, шоирнинг маънавий дунёси, лирик “мен”, муаллиф образи,
умумлашган муаллиф образи, чекланган муаллиф образи.

Ключевые слова: лирика, лирический субъект, лирический герой, духовный мир поэта, лирическое «Я», образ автора,
обобщенный авторский образ, ограниченный авторский образ.

Key words: lyrics, lyrical subject, lyrical hero, poet's spiritual world, lyrical "I", image of the author, generalized author's image,
limited author's image.

XX әсирдин 1940-50-жылларынан баслап
карақалпақ әдебияттаный илиминде поэзияны арнаўлы
изертлеген Н.Дәўкараев, С.Ахметов, Т.Мәмбетниязов,
Қ.Султанов, К.Худайбергенов, Қ.Муратбаев,
Қ.Жәримбетов, Қ.Оразымбетов, М.Мәмбетова хәм тағы
баска да илимпазлар тәрепинен лирика жанры хәм
оның түр хәм формаларға бөлиниўи, идея-тематикалық,
көркемлик өзгешеликлери сыяқлы теориялық

мәселелерге, лирикалық қахарман образына
байланыслы салдамалы мийнетлер, диссертациялар
менен монографиялар пайда болды. Олардың
көпшилигинде карақалпақ поэзиясы ямаса оның XX
әсирдеги тутас раўажланыў тенденциясы
улыўмаластырылып қамтып алынса да, ал олардағы
усы жанрдың улыўмалық қәсийетлери, оның ишки
жанрлық көп түрлилиги менен формалық эволюциясы,